

**ABDULLA AVLONIY- JADIDCHILIK HARAKATINING YORQIN VAKILI
FAOLIYATIGA NAZAR.****To'ychiyeva Aqida Abram qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va Inklyuziv
ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Abdulla Avloniyning jadidchilik harakatidagi o'rni, faoliyati va yutuqlari tahlil qilinadi. Avloniyning o'z zamonasida ta'education, madaniyat va ijtimoiy masalalarga bo'lgan yondashuvi alohida e'tiborga sazovor. U jadidchilik harakatining yorqin vakili sifatida, o'quv dasturlarini, yangi pedagogik yondoshuvlarni joriy etish va milliy o'zlikni anglashda muhim rol o'ynagan. Uning asarlari va faoliyati ortida yotgan g'oyalar, o'zbek jamiyatining rivojlanishida qanday ta'sir ko'rsatganini va milliy madaniyatni ulug'lashdagi ahamiyatini aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik harakati, ta'lim, madaniyat, milliy o'zlik, o'zbek adabiyoti, zamonaviy ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar.*

Аннотация: *роль, деятельность и достижения Абдуллы Авлони будут проанализированы в ходе джадидийского движения. Подход Авлони к образованию, культуре и социальным вопросам учитывает образование, культуру и социальные проблемы. Он был важной ролью в введении учебных программ, новых педагогических подходов как яркий представитель движения Джадида и сыграл ключевую роль в понимании национальной идентичности. Идеи, лежащие в основе его работ и деятельности, отражают влияние на развитие Узбекского общества и прославление национальной культуры.*

Ключевые слова: *Движение за джадитность, образование, культура, национальная идентичность, Узбекская литература, современная система образования, педагогические подходы.*

Annotation: *The role, activities and achievements of Abdullah Avloni will be analyzed in the Jadidian move. The Avloni's approach to Education, Culture and Social Matters account for education, culture and social issues. He was a significant role in the introduction of curricula, new pedagogical approaches as a bright representative of the Jadid movement and played a key role in the understanding of national identity. The ideas behind his works and activities reflect the impact on the development of Uzbek society and the glorification of national culture.*

Key words: *Jadidity movement, education, culture, national identity, Uzbek literature, modern education system, pedagogical approaches.*

Abdulla Avloniy nomi o'tgan XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatlarining, milliy ozodlik harakatlarida hamda yangi usul maktablarining paydo bo'lishida katta

hissa qo'shdi. 1909-yig'dan boshlab yetim bolalarni o'qitish va ularning savodini chiqarishda "Jamiyati xayriya" tashkilotining ahamiyati kattadir. Abdulla Avloniy ma'rifatchilik ishlarida maktabdorlik vazifasi bilan birgalikda, xuddi shu maktab o'quvchilarining tez savod chiqarishlarida manva sanaluvchi "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomi ostidagi 4 qismni tashkil etuvchi she'riy to'plami maktab darsliklari sifatida o'tila boshlandi. "Munavvarqabri Abdurashidxon O'g'li, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov va boshqalar bilan sherikchilikda "Nashryot"(1916), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuxrat"(1907), "Osiyo"(1908), "Turon"(1917) gazetalarini chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun"ning tashkilotchilaridan bo'ldi".Haqiqatdan ham, Abdulla Avloniy faoliyatining maktabdorlik bilan bog'liq ekanligi uning jadidchilik faoliyatida amalga oshirilgan islohotlarga faol ekanligida va qolaversa, butun Turkiston o'lkasida ochila boshlagan kutubxona, maktablar, nashryotlarning Abdulla Avloniy nomi nilan bog'liqdir. Abdulla Avloniy maktablarining gumanistik g'oyalar bilan birgalikda erkin tarbiyaga asoslangani holda amalga oshirilishi o'quvchilarning tez savod chiqarishida vosita vazifasini o'taydi. Ilm-u ma'rifatning targ'ib qilinishi, dunyo diyosatida bo'layotgan yangiliklar hamda jaholat botqog'idan qutulish eng muhim vazifa sanalib, milliy ozodlikka erishning eng muqobil yo'li ma'rifatli xalqni tarbiyalash deya qaralgan. Abdulla Avloniyning asalari o'zlashtirish uchun qulay, tili sodda, she'riy asarlar namunasida barmoq vaznining mohirona qo'llanilishi o'quvchilar tez o'zlashtirishlari uchun ko'nikma vazifasini bajargan. Jadidchilik g'oyasining ilk namoyondasi Ismoil Gasparali bo'lib, Boqchasaroyda yangi usul maktabini tashkil etib bu yo'nalish asoschisiga aylanadi. U o'z fikr mulohazalarini ommaga muntazam yetkazib turish maqsadida "Tarjimon" gazetasini chiqara boshlaydi. Bu gazeta Rossiya Imperiyasida muntazam ravishda 20 yil davomida hosib chiqarilgan musulmon gazetasi hisoblanadi. Ismoil Gasparalining Buxoroga tashrifi juda muhim qadam bo'lib, bunda amir Abdulahadxon bilan uchrashib o'z g'oyalarini amalda tatbiq etishga, yangi usul maktabini ochishga muvofaq bo'ladi. Shu tariqa yurtimiz hududida ham ilk yangi usul maktablari ochila boshladi. Bu qaysidir ma'noda jadidchilik harakatining yanada kengroq yoyilishining sabablaridan biriga aylandi. Shu davrda jadidchilik vakillarining eng salmoqli amaliy ishlarini ham kuzatishimiz mumkin. Abdulla Avloniy 1878-yili 12-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi hunarmand bo'lib, o'g'lining ta'lim olishiga katta e'tibor bergan. Dastlabki ta'limni O'qchidagi eski maktabda olgan Abdulla Avloniy 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochadi. Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi hunarmand bo'lib, o'g'lining ta'lim olishiga katta e'tibor bergan. Dastlabki ta'limni O'qchidagi eski maktabda olgan. Abdulla Avloniy 1904-yilda Mirohodda usuli jadid maktabini ochadi. E'tiborli jihatlaridan biri shuki, maktabni qurishda, jihozlar bilan ta'minlashda o'zi bevosita ishtirok etib ustachilik ham

qiladi. Maktabni davr talablari mos holda jihozlash, zamonaviy darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlashga e'tibor beradi. U birinchilardan bo'lib maktabda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya kabi fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yadi. Abdulla Avloniy maktab o'quvchilari uchun "Birinci Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Tarix", "Turkiy Guliston yoki axloq" kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklar yozgan. Bu darsliklarda adib ta'lim va tarbiya borasidagi o'z fikr-mulohazalarini, pedagogik usullarni yoritib bergan. Mazkur asarlardan keng miqiyosida foydalanilgan bo'lib ilgari surilgan g'oya va fiklar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Abdulla Avloniy axloq haqida xulqlar majmui deb fikr bildiradi. Adib qarashlar bo'yicha xulq ezgulik yoki razillikning hir insonda mujassamlashib, namoyon bo'lishidir. Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ahvol hududlarda teatrlarning ochilishi va qolaversa ushbu teatrlarda sahna asrlarining yaratilishida tashkilotchilik qobiliyati bilan boshqa jadidchilik vakillaridan ajralib turadi. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatlari asnosida yaratilgan sahna asarlarining tub estetik mohiyati, obrazlarning yaratilishi, tomoshabinlar bilan ishlashish texnikasi ma'lum bir ma'noda Abdulla Avloniy nazoratida turgan. Abdulla Avloniy anashunday vazifalar amaliyotchisi o'laroq jamiyat hayotini tanqidiy kulgu ostiga oluvchi "Advokatlik osonmi", "Pinak" nomli komediyalarini ham yartish bilan birga Turkiston o'lkasida amalga oshirilayotgan istibdod tanqid ostiga olinadi. Bunda kichik bir voqealar namunasida ko'plab yomonliklarning yuzaga kelishi, ilmsizlikning qusurlari fojea tarzda qalamga olinib, tanqidiy kulgu ostiga olinadi. Bir qaraganda kulguli bo'lgan voqealarning jamiyat hayotida tutgan o'rni, kulgu ostida o'sha davr muhitidan kelib chiqib Turkistonning eskilik ruhiyatida qolib ketishi qalamga olinadi. O'lkada amalga oshirilyotgan yangiliklar ko'lamining ahamiyati mana shunday asarlar namunasida yoritib berilgan. "Shoir o'tmishda ma'rifat gulshani bo'lgan yurtimizning jaholat botqog'iga botganidan afsuslar chekib, vatanimiz tobora vayronaga aylanayotgani, ilm ma'rifatga oshno qalblargina bunday balodan qutulishini ta'kidlaydi. Shu ma'noda shoirning "Ilmga targ'ib", "Jaholat", "Istiqboldan orzularim", "Millatga salom" she'rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan". O'zbekiston tarixida : Avloniy milliy madaniyat va an'analarni saqlashga katta ahamiyat berdi. U o'z asarlarida O'zbekistonning boy tarixini, madaniyatini va adabiyotini yoritdi. Bu orqali u yosh avlodni o'z xalqining merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga undadi. Avloniy nafaqat ta'lim sohasida, balki ijtimoiy hayotda ham faol ishtirok etdi. U turli tashkilotlar va jamiyatlar orqali yoshlarni tarbiyalash, ularni ijtimoiy masalalarda faollikka chaqirishga intildi. Abdulla Avloniy o'z asarlarida milliy g'urur, erkinlik va taraqqiyot g'oyalarini ilgari surdi. Uning she'rlari va maqolalari o'z zamonasining muhim ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritdi. Abdulla Avloniyning jadidchilik harakatidagi faoliyati O'zbekiston tarixida muhim ahamiyatga ega. Uning ta'lim sohasidagi islohotlari, milliy qadriyatlarni saqlashga bo'lgan intilishi va ijtimoiy

faoliyati bugungi kunda ham o'rganilishi va qadrlanishi zarur. Avloniyning merosi, yosh avlod uchun ilhom manbai bo'lib qolmoqda. Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining yorqin vakili sifatida, o'z xalqining ta'limi, madaniyati va ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar yaratishga muvaffaq bo'lgan shaxsdir. Uning faoliyati nafaqat o'z zamonasi, balki kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatli bo'lib qoladi. Jadidchilik harakati va Avloniyning merosi bugungi kunda O'zbekistonning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Avloniy tanlangan asarlar. 1-jild – Toshkent, Ma'naviat 2006
2. Hayitmetov A., Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent
3. ALIYEV a, Sodiqov Q, o'zbek tili tarixidan – Toshkent, O'zbekiston, 1994.z
4. <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/download/14260/9927>
5. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/12043/8573/8643>